


YOSHLAR TARBIYASIDA TEXNOLOGIYA FANINING O'RNI



Qoraqalpog'iston Respublikasi

Shumanay tumani 16-sonli maktabning

Texnologiya fani o'qituvchisi

Atamuratova Ayxan Shamuratovna

Annotatsiya: bu maqolada Texnologiya fanini o'qitish borasida yoshlarni zamonaviy va milliy qadryatlarimiz asosida tarbiyashning ahamiyati haqida fikrlar berilgan

Kalit so'zlar: texnologiya, milliy qadriyatlar, zamonaviy, yoshlar tarbiyasi, hayotiy ko'nigmalar, mehnatsevarlik,kasbga tayyorlash,uy-ro'zg'or, urf-odat...

Bugun biz tarixiy bir davrda –xalqimiz o'z oldiga ulug' va yuksak maqsadlar qo'yib, farovon turmush kechirib, eng avval o'zining kuchi va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyatni tuzish yo'lida katta natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashayapmiz. Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni mamalakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori eng avval farzandlarimizning o'nib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liq"-degan edi I.Karimov. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev-Yosh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich-maktab ta'limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzlusizligini ta'minlash zarur. Bu yo'lida hech narsani ayamaslik kerakligini,ta'lim va tarbiyaning barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish kerakligini bejizga ta'kidlamaganlar.

Bugungi kunda ta'limda amalga oshirilayotgan tub islohotlar kelajagimiz bo'lgan yoshlarning Vatanimiz ravnaqi yo'lida har tomonlama yetuk shaxs sifatida

shakllanishi, bozor munosabatlarida raqobatbardosh kadr bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Fan-texnika shiddat bilan rivojlanib, har bir sohaga xorijiy tajribalar, yangiliklar kirib kelayotgan hozirgi davrda mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu borada umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qitiladigan Texnologiya fani ham yoshlarni mehnatga o’rgatish, hayotga tayyorlash, kasb-hunarga qizitirishda katta xizmat qiladi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida Texnologiya fanini o’qitishning maqsadi o’quvchilarning aqliy va fizik mehnat turlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki bilim mehnat ko’nikmalari, mehnatga qiziqtirish va mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning mohiyatini tushinishga o’rgatish hisoblanadi. Umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quvchilari texnologiya fanidan 1-9-sinflarda ishlab chiqarish va agrar sohalarga bog’liq kasb-hunarlar bilan tanishadi. Shuningdek uy ro’zg’orchilik asoslari, ro’zg’or qurollari haqida bilimlarni shakllantirish nazarda tutiladi. Oziq-ovqat sohasidagi kasblar, ularning turlari, oila byudjeti, qiz bolalar gigienasi, ro’zg’or asboblarini ishlatish, turli taomlar tayyorlash, zamonaviy ro’zg’or asboblarin ishlata bilih, texnika xavfsizlik qoidalariga e’tiborli bo’lish kerakligi tushintirilib boriladi. Texnologiya fanining maqsadi va vazifalarini teran tushingan o’qituvchi o’quvchilar uchun muhum hayot ko’nikmalarini ham shakllantira oladi. Har bir dasrda texnika xavfsizlik qoidalari bilan birgalikda mavzuga oid bur qancha tushunchalar shakllantiribgina qolmasdan, mavzu doirasida amaliy mashg’ulotlar orqali ko’nikmalar shakllanitirib boradi. Bolani mehnatga, mehnatsevarlikka o’rgatishda texnologiya fanining hissasi katta. Dars davomida egallagan bilimlari asosida ko’nikma hosil qilish uchun amaliy mashg’ulotlar o’tkazish ham rejaga kiritilgan. Bugun biz tarbiyalab bilim berayotgan har bir bola, har bir yosh bizning ertangi kelajagimizdir.

Texnolgiya darslarida xalqimizning milliyligi, urf-odatlari, milliy qadryatlarimizni aks ettiruvchi mavzular jamlangan. Zamonaviylikni milliyligimizga uyg’unlashtirib ishlanadigan har bir asar san’at asaridek o’quvchilarnign bor orzu

umidi-yu havaslari jamlanib ishlanadi. O'qituvchi esa uni sayqallaydi. Dizayn sohasida yaratiadigan har qanday buyumga milliyligimiz singdirilib boriladi.

Yosh qizlarimizni kichkinaligidan shaxsiy gigiena qoidalariga o'rgatish, ro'zg'or buyumlari haqida tushunchalarini boyitish va mustahkamlash, xalqimizning qon-qoniga singib ketgan tejamkorlik fazilatlari, xususan, gaz, suv, elektr energiyasi, issiqlik tizimi va undan foydalanish ko'nikmalari shakllantirilib boriladi. Yoshligidan oila va uning muqaddasligi, ogohlilik, tozalik haqida tushunchalari keng tushintiriladi. Texnika xavfsizlik qoidasiga amal qilishni har bir darsdagi shior kabi ongiga singdirish, ularni butun hayoti davomida ehtiyojkorlik asosiy mezon ekanligin tushintiradi. Asosan, qizlarimizning orasta va ozoda bo'lismiga uy-ishlarida va oshxonada sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilish kabi fazilatlar bilan terbiyalanishi kerak. Qiz bola millatning yuzi. Uning ertangi kuni bir oilaning bekasi sifatida bilimli va tarbiyalı qilish hammamizning vazifamizdir.

Ta'lim sohasi rivojlangan chet davlatlarning ta'lim sohasidagi tajribasidan milliy qadriyatlarni amalga oshirilayotgan islohatlarni hisobga olgan holda yetilishtirib borish ko'zda tutilgan. Shuningdek, ta'lim tizimiga milliy va umuminsoniy va ruxiy qadryatlar negizida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali uslubi va qurollaridan keng qo'llanish, ta'lim-tarbiya tiziminig samaraligini ta'minlashda pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga berilayotgan e'tibor bu fanning asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishda katta yordam bermoqda.

Yoshlarni darsdagi bilim va ko'nikmalar asosida hayotga tayyorlash, dars davomida egallagan bilimlarini amalda, tanish bo'limgan holatlarda qo'llash maqsadida jahon tajribalarini ta'limga kiritish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchi komponentligini shakllantirish uchun tayanch va fanga oid kompetentsiyalar ishlab chiqilgan yangi o'quv dasturlari amaliyotga joriy etildi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'liming davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan. Bu dasturda ko'rsatib berilganidek, asosiy maqsad ta'lim tizimida jahon stsndartlari asosida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni amalda qo'llay olish uchun kompetentsiyalar asosida o'quvchilar ongiga milliy va umuminsoniylik fazilatlarni singdirish, o'zlikni anglash, o'zini-o'zi rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarda foydalana olish, o'zining ijtimoiy hayottagi fuqarolik burchlarini anglashi va har qanday holatda ham matematik savodxanlikka ega bo'lishi bilan bir qatorda, o'z millati, xalqining tarixi, qadryatlarini e'zozlagan holda milliylikni zamonaviylik ko'rinishda bera olishda katta hissa qo'shadigan fan texnologiya fani hisoblanadi. Bu fanda faqatgina buyum yoki andoza yaratish, taom tayyorlash sirlarini o'rganibgina qolmasdan, balki, yoshlarni hayotga, turmushga bilimli, tarbiyalı, kasb-hunar sirlarini o'rgangan, har tomonlama yetuk inson qilib tayyorlaydi.

Vatanimizning jahonda o'z o'rni va nufuziga ega bo'lishi da ham xalqimizning boy va ma'naviy meroslari muhim ahamiyatga ega. Ularni asrab-avaylash va keljak avlodga butunligicha yetkazib berish hammamizning burchimizdir. O'sayotgan har bir bola ongini milliylik ruhida tarbiyalab borishda maktab ta'liming o'rni beqiyosdir. Ezgulik yo'lidagi har qanday hatti-harakat ma'naviy boyliklar yaratishga olib keladi. Shuning uchun ham uzoq yillar davomida yashab kelayotgan insonparvar urf-odatlar, an'analar, ma'naviy-madaniy qadriyatlar hali hamon ehtiyyotlab asralmoqda va boyitilmoqda. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugungi shiddatli davrda chuinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin".

Xulosa qilib aytganda, Texnologiya fanini o'qitishdagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib tuzilgan dastur asosida o'quvchilarga bilim berish, hayotiy ko'nikmalar asosida tarbiya shakllantirish uchun millatimizga, xalqimiz mintalitetiga mos milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirib dars o'tish bugungi kun o'qituvchisining oliv maqsadidir. Shunki, yoshlar tarbiyasida texnologiya faninig ham o'rni beqiyosdir. Texnologiya fani nafaqat mehnatsevarlikka o'rgatish, mehnatni sevish, hayotimiz davomida kerak bo'lgan har qanday tartib qoidalarni o'rgatish, kasbga tayyorlash va kasb turlarini hurmat qilishga o'rgatadi. Shuningdek ularni xalqimizning boy madaniy-ma'naviy meroslarini bilish, a'analarini sevish, uklar asosida xalqimiz milliyligini butun dunyoga tanitadigan yoshlarni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumi o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y.,14-son
2. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Toshkent. 2008-yil